


I.S. TUXLIYEV, R. HAYITBOYEV,
B.SH. SAFAROV, G.R. TURSUNOVA

TURIZM ASOSLARI



TOSHKENT

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

**I.S.TUXLIYEV, R.HAYITBOYEV, B.SH.SAFAROV,
G.R.TURSUNOVA**

TURIZM ASOSLARI

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
toimonidan «Turizm» ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun darslik
sifatida tavsiya etilgan.*

TOSHKENT – 2014

75.81
T877

UDK 338.482.22 (075)
KBK 65.433+75.81
T-53

T-53 I.S. Tuxliyev, R.Hayitboyev, B.Sh. Safarov, G.R.Tursunova. Turizm asoslari. Darslik. O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Maxsus Ta'lim Vazirligi.
-Toshkent: Fan va texnologiya, 2014, - 332 bet.

ISBN- 978-9943-975-50-7

Ma'sul muharrir:
Z.D.Adilova
Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti,
iqtisod fanlari doktori.

Taqrizchilar:
i.f.d. professor M.Q. Pardayev,
f.f.n. M.X.Boboyorov.

Darslikda O'zbekistonda turizm sohasining rivojlanishi, uning mazmun va mohiyati, turizm sohasining resurslari, turizm industriyasi, turizmning menejmenti, turizmning marketingi, turizmda amalga oshirilayotgan islohotlar va davlat siyosati kabi muhim masalalarning uslubiy asoslari yoritib berilgan. Shuningdek, darslikda turizmning turlari, turistik marshrutlarini yaratish, turizm sohasidagi xizmatlar, ekoturizm, qishloq turizmi va gastronomiya turizmlarini tashkil qilishning ijtimoiy-iqtisodiy asoslari keltirilgan. Darslikda har bir mavzuni talaba tomonidan yaxshi o'zlashtirish bo'yicha tayanch so'z va iboralar, mustaqil ishlash uchun savollar, amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rishi uchun topshiriqlar va test savollari berilgan.

Darslik oliy o'quv yurtlarining turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha), mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish, marketing va menejment (turizm) bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalarga, magistr'larga mo'ljallangan. Undan turizm kasb-hunar kollejarining o'qituvchilari va turizm sohasida faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislar ham foydalanishlari mumkin.

UDK 338.482.22 (075)
KBK 65.433+75.83

ISBN- 978-9943-975-50-7

«Turizm sodda qilib aytganda, dunyoni tushunish, dunyoni anglash, shu bilan birga dunyo sahniga chiqish demakdir. Biz ana shu muhim sohani rivojlantirishimiz, uning keng imkoniyatlaridan foydalanishimiz kerak...»¹.

I.A.Karimov

KIRISH

O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq xizmatlar ko'rsatish sohasidagi turizm xizmatlari zamonaviy xizmat turlari sifatida talqin qilinib, unga e'tibor davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Soha rivoji uchun zaruriy tashkiliy-huquqiy mexanizmlar vujudga keltirilib, hukumat tomonidan tegishli me'yyoriy hujjatlar qabul qilindi. Bu yo'nalishdagi ishlar hozir ham davom etayotgani fikrimizning isbotidir. Shu tufayli «Jahon sayohat va turizm kengashi» (WTTC) ning ko'rsatkichi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi 2013- yilda turizm sohasida eng tez rivojlanayotgan beshta mamlakatlar qatoriga qo'shildi².


Bugungi kunda turizm sohasi mamlakatlar va mintaqalar iqtisodiyotini rivojlantirish uchun muhim ahamiyat kasb etishini va uXXI asr jahon xo'jaligining ustuvor tarmoqlaridan biri ekanligini alohida ta'kidlash lozim.

O'zbekiston zamonaviy turizm industriyasini rivojlantirish uchun barcha zarur manbalarga ega. Buyuk Ipak yo'li ustida joylashgan Vatanimiz qulay tabiiy-iqlim sharoitlariga, boy tarixiy, madaniy merosga va ayni paytda ham ichki, ham xalqaro turizmni rivojlantirish uchun yuqori salohiyatga ega.

Mamlakatni modernizatsiyalash bosqichida turizm va mehmondo'stlik industriyasi sohasidagi yechimini kutib turgan masalalar qatorida, turizm industriyasi mehnat bozorida ishlovchi xodimlarga qo'yiladigan malakaviy talablarga javob bera oladigan kadrlarni tayyorlash dolzarb masala bo'lib turibdi. Shularni hisobga olib,

¹Каримов И.А. «Бунёдкорлик йўлидан».Т.: Ўзбекистон, 1996 й. 285 б.

²<http://www.economics.uzreport.uz>



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan «Samarqand iqtisodiyot va servis institutini tashkil etish to'g'risida» gi qaroriga asosan Samarqand iqtisodiyot va servis institutida turizmning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash belgilandi. Hozirgi paytda ushbu o'quv dargohida «Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha)», «Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish», «Turizm (faoliyat turlari bo'yicha)», «Turizm va mehmonxona xo'jaligi servisi», «Marketing (turizm)», «Menejment (turizm)», «Turizm marketingi», «Turizm menejmenti», «Turizm operatorlik xizmatini tashkillashtirish», «Servis (turizm va mehmonxona xo'jaligi)» ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kadrlar tayyorlanmoqda. Bu borada turizm sohasidagi oliy o'quv yurtlari, Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturidagi ixtisoslik fanlar blokida turgan «Turizm asoslari» fani ham muhim ahamiyatga ega.

Ushbu darslik turizm yo'nalishida o'qiyotgan talabalar uchun jiddiy chegaralanishlar, fan haqida aniq tushunchaga ega bo'lishni va uning mohiyatini tushuna olish darajasida qo'l keladi. Shuning uchun ham ushbu darslik birinchi navbatda, fanni anglab olish mezonini talab qilsa, ikkinchi navbatda esa talabalarning o'zlarining yo'nalishidagi qiziqishlari, fanga yanada mas'uliyat bilan yondashishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, fan bo'yicha hozirda lotin alifbosida darslik va o'quv qo'llanmalarining yetishmasligini hisobga olgan holda va turizm ta'limi yo'nalishlari bo'yicha Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Respublikada tayanch oliy dargoh bo'lganligi tufayli, mualliflar tomonidan tayyorlangan ushbu darslik turizm asoslarini o'qitishda boshqa oliy o'quv yurtlari va turizm kollejlari talabalariga yaqindan yordam beradi degan fikrdamiz.